



COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL ORGANIZATIONS (USING THE EXAMPLE OF THE UNITED NATIONS)

Shukhrat Makhmudbekov

Professor of the Tashkent University of
Applied Sciences, Doctor of Historical Sciences
mukhamedov-2017@mail.ru
Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: United Nations, foreign policy of Uzbekistan, international cooperation, Sustainable Development Goals (SDGs), human rights, the Aral Sea problem, UNDP, UNICEF, UNESCO.

Received: 25.12.25

Accepted: 26.12.25

Published: 27.12.25

Abstract: The article highlights the cooperation of the Republic of Uzbekistan with the United Nations (UN), its historical formation and current stages of development. After joining the UN, Uzbekistan has established active cooperation in the political, economic, social, and environmental spheres. Through the UN and its special agencies, sustainable development goals, human rights, environmental security, and social reforms are being implemented in our country. As a result of the President's initiatives, the problem of the Aral Sea region, regional cooperation, and youth policy have been promoted at the global level. The article describes the importance of Uzbek-UN cooperation in enhancing the country's international prestige and ensuring sustainable development.

O'ZBEKISTON VA XALQARO TASHKILOTLAR HAMKORLIGI (BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI MISOLIDA)

Shuxrat Mahmudbekov

Toshkent amaliy fanlar
universiteti professori, t.f.d
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, O'zbekiston tashqi siyosati, xalqaro hamkorlik, barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG), inson huquqlari, Orolbo'yi

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) bilan hamkorligi, uning tarixiy shakllanishi va hozirgi rivojlanish

muammosi, UNDP, UNICEF, UNESCO.

bosqichlari yoritilgan. O'zbekiston BMTga a'zo bo'lgach, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sohalarda faol hamkorlikni yo'lga qo'ydi. BMT va uning maxsus agentliklari orqali mamlakatimizda barqaror rivojlanish maqsadlari, inson huquqlari, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz tashabbuslari natijasida Orolbo'yi muammosi, mintaqaviy hamkorlik va yoshlar siyosati global darajada ilgari surildi. Maqolada O'zbekiston - BMT hamkorligi mamlakatning xalqaro nufuzini oshirishi va barqaror taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi tavsif qilingan.

СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ (НА ПРИМЕРЕ ОРГАНИЗАЦИИ ОБЪЕДИНЕННЫХ НАЦИЙ)

Шухрат Махмудбеков

Профессор Ташкентского университета

прикладных наук, д.и.н

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Организация Объединенных Наций, внешняя политика Узбекистана, международное сотрудничество, Цели устойчивого развития (ЦУР), права человека, проблема Приаралья, ПРООН, ЮНИСЕФ, ЮНЕСКО.

Аннотация: В статье освещается сотрудничество Республики Узбекистан с Организацией Объединенных Наций (ООН), его историческое становление и современные этапы развития. После вступления в ООН Узбекистан наладил активное сотрудничество в политической, экономической, социальной и экологической сферах. Посредством ООН и ее специализированных учреждений в нашей стране реализуются цели устойчивого развития, обеспечиваются права человека, экологическая безопасность и проводятся социальные реформы. В результате инициатив нашего Президента проблема Приаралья, региональное сотрудничество и молодежная политика были выдвинуты на глобальный уровень. В статье описывается, что сотрудничество Узбекистана и ООН играет важную роль в повышении международного авторитета страны и обеспечении ее устойчивого развития.

Kirish. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) - bu dunyoda tinchlikni saqlash, xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish va davlatlar o'rtasida hamkorlikni

rivojlantirishga qaratilgan eng yirik xalqaro tashkilotdir. G'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida BMT bilan hamkorlikni g'z tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri deb e'lon qildi.

Muhokama va natijalar. 1992-yil 2-mart kuni G'zbekiston BMTga to'liq a'zo sifatida qabul qilindi. Shu kundan boshlab mamlakat va BMT o'rtasidagi hamkorlik siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik yo'nalishlarda izchil rivojlanib bormoqda. G'zbekiston va BMT o'rtasidagi hamkorlik xalqaro huquq normalari hamda ikki tomonlama bitimlar asosida yg'lg qg'yilgan. BMTning Toshkentdagi vakolatxonasi 1993-yilda ochilgan bo'lib, bugungi kunda BMT tizimidagi 20 dan ortiq agentlik, dastur va tashkilotlar G'zbekiston bilan faol hamkorlik qiladi [1]. G'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi minbarida qator muhim global tashabbuslar ilgari surilgan. Masalan, Markaziy Osiyo davlatlari g'rtasida mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish, Orol dengizi muammosini hal etish, Yoshlar siyosati va barqaror rivojlanish masalalari bo'yicha tashabbuslar BMT tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Bundan tashqari, Orolbo'yi mintaqasida ekologik inqiroz oqibatlarini yumshatish bo'yicha BMT ko'magida maxsus "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar hududiga aylantirish" tashabbusi amalga oshirilmoqda. BMTning ko'magi G'zbekistonda islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini mustahkamlash va aholining turmush darajasini oshirishda muhim o'rin tutmoqda. Masalan, 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) doirasida O'zbekiston iqtisodiy o'sish, ijtimoiy tenglik va ekologik xavfsizlikni birlashtirgan milliy dasturlarni qabul qilgan. BMT bilan hamkorlik natijasida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish hamda yoshlarning innovatsion g'oyalarini qg'llab-quvvatlashga qaratilgan g'nlab dasturlar hayotga tatbiq etilmoqda. G'zbekiston va BMT o'rtasidagi hamkorlik mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish, global muammolarni hal etishdagi ishtirokini kuchaytirish hamda ichki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda G'zbekistonning BMT bilan hamkorligi nafaqat diplomatik yo'nalishda, balki inson manfaatlarini himoya qilish, barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda ham o'z samarasini bermoqda.

O'zbekiston - BMT hamkorligining istiqbollari va dolzarb yo'nalishlari. Oxirgi bir necha yil barcha sohalarida amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, tub islohotlar va bu borada erishilgan ulkan yutuqlar miqyos jihatidan mustaqil O'zbekiston tarixida misli ko'rilmagan hodisa bo'ldi va xalqaro munosabatlar, tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarda yangi davrni boshlab berdi. Ayni paytda, muvaffaqiyat bilan amalga oshirilgan muhim tashqi siyosiy tashabbuslar natijasi o'laroq, xalqaro maydonda keng miqyosdagi yuksak natijalarga

erishilmoqda. Ma'lumki, zamonaviy xalqaro munosabatlar ularda ko'p tomonlama diplomatiyaning roli ortib borayotganligi bilan ham xarakterlanadi. Ko'p tomonlama diplomatiya xalqaro hayotning Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) faoliyati bilan bog'liq ko'plab muhim jabhalarini qamrab oladi. O'tgan qisqa davrda O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining belgilovchi asosiy yo'nalishlaridan biri hamkorlikni mustahkamlash maqsadida BMT bilan sherikligimiz sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

Prezidentimiz 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida "Birlashgan Millatlar Tashkiloti, boshqa nufuzli xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar bilan yaqin hamkorlikni rivojlantirish masalalari doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi". Kelgusi yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligida "Inson huquqlari bo'yicha ta'lim" global forumi, yoshlar huquqlariga bag'ishlangan Butunjahon yoshlar anjumani, diniy erkinlik masalalari bo'yicha mintaqaviy konferentsiyalarni o'tkazamiz. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining rezolyutsiyasi bilan har yili 30 iyul - Xalqaro do'stlik kuni sifatida keng nishonlanadi. Shu bois ushbu sanani O'zbekistonda "Xalqlar do'stligi kuni" deb belgilashni taklif etaman... Qo'shni davlatlar va jahon jamoatchiligi bilan birgalikda Orol dengizi halokati oqibatida yuzaga kelgan ekologik fojialar ta'sirini yumshatishga qaratilgan harakatlarni qat'iy davom ettiramiz. Dengizning qurigan tubida yuz minglab gektar o'rmon va butazorlar tashkil etilayotgani, Orolbo'yi hududlarida amalga oshirilayotgan ulkan qurilish va obodonchilik ishlari xalqimizni yuksak marralar sari ruhlantirmoqda. Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan. "hamkorlikda tuzilgan Orolbo'yi mintaqasida inson xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ko'p tomonlama Trast fondi doirasidagi amaliy ishlarni yanada kuchaytiramiz...", deb alohida ko'rsatib o'tganligi O'zbekistonning BMT doirasidagi xalqaro tashabbuslarida yangi tendentsiyalarni namoyon qildi [2].

BMT xalqaro tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga, davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan, davlatlar xalqaro hayoti va hamkorligining barcha yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatadigan betakror, tarixan muhim va universal tashkilotdir. Dunyoda kechayotgan hozirgi globallashuv jarayoni insoniyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan birga, o'zida turli tahdid va xavf-xatarlarni ham namoyon etmoqda. Ana shunday sharoitda davrimizning eng obro'li xalqaro tuzilmasi - BMT bilan tinchlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlash yo'lida samarali hamkorlik qilish xalqimizning tub milliy manfaatlariga to'liq mos keladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi O'zbekiston -BMT munosabatlarining yangi bosqichini boshlab berdi. Prezidentning sessiyada so'zlagan nutqida, "Biz qat'iy ishonamiz, BMT bundan keyin ham xalqaro munosabatlarda hal qiluvchi o'rin tutadi" degan fikri

respublikamizning tashqi siyosiy pozitsiyasini izohlab berdi. Mazkur mustahkam siyosiy-diplomatik pozitsiya davlatimiz rahbari tomonidan 2020 yil 23 sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida ilgari surilgan global va mintaqaviy ahamiyatga ega tashabbuslarda yana bir bor o'z ifodasini topdi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda BMTning o'ndan ortiq dasturlari, jamg'armalari va agentliklari, bir qator ixtisoslashgan muassasalari faoliyat olib bormoqda. O'z navbatida Nyu-York shahrida Doimiy vakolatxona va Jeneva shahridagi BMT bo'linmasi va boshqa xalqaro tashkilotlardagi Doimiy vakolatxona faoliyat olib bormoqda. O'zbekiston keyingi yillarda BMTning Jenevadagi bo'limi bilan hamkorlikni yanada kuchaytirmoqda. O'zbekiston BMTning Bosh Assambleyasi va boshqa ixtisoslashtirilgan muassasalari faoliyatidagi o'z ishtirokini ham otirdi akatimizga BMT Bosh kotibi, Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar, BMTning Diniy e'tiqod bo'yicha, Sud'yalar va advokatlar mustaqilligi ma'ruzachisi bo'yicha maxsus ma'ruzachilarining masalalari bo'yicha maxsus maruzachilarning amalga oshirgan tashriflari kata ahaiyatga ega bo'ldi. Ta'kidlash joizki, 2020-yil amalga oshirgan tashriflari katta ahamiyatga ega bo'ldi. 13 oktyabr" kuni BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida O'zbekiston milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi a'zoliciga uch yil muddatga - 2021-2023-yillarga saylanishi va a'zo sifatida Kengashning dastlabki uchrashuvida birinchi marta ishtirok etishi olamshumul va tarixiy voqelikdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Inson huquqlari bo'yicha kengashning 46-sessiyasida so'zlagan nutqida ilgari surilgan tashabbuslar bevosita O'zbekiston va BMT doirasidagi ikki tomonlama hal etiladigan masalalar bilan birgalikda, mintaqaviy va global darajada keng xalqaro hamkorlar bilan amalga oshirilishi talab etiladi. Ushbu nutqda belgilab berilgan yangi vazifalar Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi 75-sessiyasidagi nutqi hamda Oliy Majlisga yo'llangan Murojaatnomasidagi vazifalar bilan hamohangdir. Shu tariqa O'zbekiston hamda BMT o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik muvaffaqiyat bilan ravnaq topmoqda. Bundan keyin ham O'zbekiston Respublikasining jahondagi yirik xalqaro tashkilot BMT bilan munosabatlari tenglik va manfaatli sheriklik asosida rivojlanib boraveradi [3]. Iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sohalarida BMT agentliklari bilan hamkorlik. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) - xalqaro tinchlik, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlash yo'lida faoliyat yurituvchi eng yirik xalqaro tashkilotdir. 1945-yilda tashkil etilgan BMT hozirda dunyodagi deyarli barcha mamlakatlarni birlashtirib, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda BMT tizimiga kiruvchi ko'plab maxsus agentliklar mamlakatlarning barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDGs) erishishida amaliy yordam ko'rsatmoqda. O'zbekiston ham mustaqillikka

erishganidan so'ng BMT va hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Bu hamkorlik iqtisodiy, ijtimoiy soha, ekologiya sog'liqni saqlash, ta'lim va inson huquqlari kabi yo'nalishlarni qamrab oladi.

1. Iqtisodiy sohada BMT agentliklari bilan hamkorlik - Iqtisodiy rivojlanish BMT faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biridir. BMT tizimidagi bir qator agentliklar amlakatlarga iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, sarmoya jalb etish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va kambag'allikka qarshi kurashda yordam beradi.

BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP): UNDP G'zbekiston bilan hamkorlikda iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash, xususiyl sektorni rivojlantirish, raqamli iqtisodiyot va davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish yo'nalishlarida ishlaydi. UNDP tomonidan "Barqaror rivojlanish maqsadlari" doirasida mamlakatda tadbirkorlik muhitini yaxshilash, yoshlar bandligini oshirish va gender tengligini ta'minlashga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda.

BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO): UNIDO sanoat modernizatsiyasi, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha loyihalarni amalga oshiradi. G'zbekistonda UNIDO bilan hamkorlikda "energiya tejamkor sanoat", "yashil texnologiyalar" va "eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish" sohalarida loyihalar olib borilmoqda.

BMTning Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD mamlakatlarga global savdo siyosatida faol ishtirok etish, sarmoya oqimini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash masalalarida maslahat va tahliliy yordam beradi. U G'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish jarayonida ham texnik yordam ko'rsatmoqda [4].

2. Ijtimoiy sohada hamkorlik - BMT tizimida ijtimoiy rivojlanishga bag'ishlangan bir qator muhim agentliklar faoliyat yuritadi. Ularning asosiy maqsadi inson salohiyatini oshirish, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va gender tengligini ta'minlashdir.

BMTning Bolalar jamg'armasi (UNICEF): UNICEF bolalar huquqlarini himoya qilish, ularning sog'lom o'sishi va sifatli ta'lim olishini ta'minlash yo'nalishida faoliyat yuritadi. O'zbekistonda UNICEF sog'liqni saqlash, maktabgacha ta'lim, ijtimoiy himoya va nogironligi bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirmoqda.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO): WHO sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlash, yuqumli va yuqumsiz kasalliklarning oldini olish hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda hamkorlik qiladi. G'zbekiston bilan hamkorlikda "COVID-19 pandemiyasi" davrida tibbiy yordam va vaksinalarni yetkazib berish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirilgan".

BMTning Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA): UNFPA aholini rejalashtirish, ona va bola salomatligi, reproduktiv sog'liqni saqlash sohalarida faoliyat yuritadi. Bu agentlik gender

tengligi va ayollar huquqlarini ta'minlash borasida ham muhim dasturlarni amalga oshirib kelmoqda.

3. Ekologik sohada hamkorlik - So'nggi yillarda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari BMT kun tartibida eng muhim mavzulardan biriga aylangan. BMTning ko'plab agentliklari iqlim o'zgarishi, suv resurslarin boshqarish, cho'llanishga qarshi kurash va biologik xilma-xillikni saqlash sohalarida faoliyat yuritad.

BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP): UNEP ekologik muammolarni hal etishda global yetakchi hisoblanadi. G'zbekiston bilan hamkorlikda "cho'llanishga qarshi kurash", "Orolbg'yi mintaqasini tiklash", "yashil energetika" va "iqlim o'zgarishiga moslashuv" loyihalari amalga oshirilmoqda [5].

Global ekologik fond (GEF): GEF BMT bilan hamkorlikda dunyo bg'ylab ekologik loyihalarni moliyalashtiradi. G'zbekistonda GEF ko'magida "biologik xilma-xillikni saqlash", "suv resurslarini tejash", "qishloq xg'jaligida ekologik yondashuvlarni joriy etish" loyihalari amalga oshirilmoqda [6].

FAO - BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti: FAO oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligida barqaror usullarni rivojlantirish va suv resurslarini boshqarish bg'yicha hamkorlik qiladi. G'zbekiston bilan hamkorlikda "suv tejovchi texnologiyala", "agroekoturizm", "qishloq xo'jaligida raqamli innovatsiyalar" kabi loyihalar amalga oshirilmoqda [7].

BMT va uning agentliklari bilan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sohalarda olib borilayotgan hamkorlik O'zbekistonning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Ushbu hamkorlik mamlakatda xalqaro standartlarga mos islohotlarni jadallashtirish, inson kapitalini rivojlantirish va ekologik muammolarni hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida ham O'zbekiston BMT tizimi bilan hamkorlikni yanada kengaytirish, yangi innovatsion va ekologik barqaror loyihalarni amalga oshirish orqali global barqaror taraqqiyotga g'z hissasini qo'shishda davom etadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) - xalqaro miqyosda tinchlikni saqlash, inson huquqlarini himoya qilish, barqaror taraqqiyotni ta'minlash hamda ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal etish bilan shug'ullanadigan yirik xalqaro ashkilotdir. O'zbekiston Respublikasi 1992-yil 2-martda BMTga a'zo bo'lgan va o'shandan buyon BMTning turli agentliklari bilan faol hamkorlik qilib kelmoqda. BMT tizimidagi kg'plab tashkilotlar G'zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlarini (SDG - Sustainable Development Goals) amalga oshirishda bevosita ishtirok etmoqda. Ularning orasida "BMT Taraqqiyot Dasturi

(UNDP)”, “BMTning Bolalar jamg‘armasi (UNICEF)” va “BMTning Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti (UNESCO)” alohida g‘rin tutadi.

BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP - United Nations Development Programme) 1965-yilda tashkil etilgan bo‘lib, u dunyo miqyosida barqaror taraqqiyot, kambag‘allikka qarshi kurash, atrof-muhitni muhofaza qilish, inson huquqlarini ta’minlash va davlat boshqaruvini takomillashtirish bilan shug‘ullanadi.

O‘zbekiston UNDP bilan 1993-yildan boshlab faol hamkorlik qiladi. Ushbu hamkorlik mamlakatda “iqtisodiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlash”, “raqamli iqtisodiyot”ni rivojlantirish, “yashil energetika” va “barqaror ekologik boshqaruv”ni yo‘lga qg‘yishga qaratilgan.

UNDP tomonidan amalga oshirilgan muhim dasturlar va loyihalar: “Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG)ni amalga oshirish” dasturi - G‘zbekistonni 2030-yilgacha mg‘ljallangan BMT maqsadlariga moslashtirishga xizmat qilmoqda.

“Raqamli O‘zbekiston” loyihasi - davlat boshqaruvi tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ochiqlik va samaradorlikni oshirishga qaratilgan.

“Iqlim o‘zgarishiga moslashuv” loyihasi - suv resurslarini boshqarish, cho‘llanishga qarshi kurash va ekologik xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan.

“Hududiy rivojlanish dasturlari” - Qoraqalpog‘iston, Surxondaryo va Farg‘ona viloyatlarida kambag‘allikni kamaytirish va yoshlar bandligini oshirishga qaratilgan. UNDP, shuningdek, G‘zbekiston hukumati bilan birgalikda “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini ishlab chiqishda va gender tengligini ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi [8].

UNICEF (United Nations Children's Fund) - BMTning bolalar va onalar huquqlarini himoya qiluvchi eng yirik tashkilotlaridan biri bo‘lib, 1946-yilda tashkil etilgan. Tashkilotning asosiy maqsadi bolalar farovonligini ta’minlash, ularnin sog‘lom o‘sishi, ta’lim olishi va ijtimoiy himoyasini kuchaytirishdir. O‘zbekisto 1994-yilda UNICEF bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan. Bugungi kunda UNICEF mamlakatda “ta’lim”, “sog‘liqni saqlash”, “bolalar himoyasi”, va “ijtimoiy rivojlanish” yo‘nalishlarida faoliyat olib bormoqda. UNICEF shuningdek, O‘zbekistonda “Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya”ning to‘liq amalga oshirilishiga ko‘maklashadi [9].

UNESCO (United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization) 1945-yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi – ta’lim, fan, madaniyat va axborot orqali xalqlar o‘rtasida tinchlikni mustahkamlashdir. O‘zbekiston 1993-yildan beri UNESCO a’zosi hisoblanadi. Mamlakat bu tashkilot bilan “madaniy merosni asrash”, “ta’lim tizimini rivojlantirish”, “ayollar huquqlarini kengaytirish” va “fan sohasida innovatsiyalarni rag‘batlantirish” yo‘nalishlarida hamkorlik qiladi.

O'zbekistonda amalga oshirilgan asosiy UNESCO dasturlari: "Madaniy merosni asrash loyihalari" - Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari "UNESCO Butunjahon merosi ro'yxati"ga kiritilgan [10].

"Nomoddiy madaniy meros" yo'nalishida "Navro'z", "Boysun madaniy an'analari", "Oshan'ati", "Askiya", "Do'ppi tikish an'analari" kabi qadriyatlar ro'yxatga olingan.

"Ta'lim tizimida sifatni oshirish" - UNESCO O'zbekiston bilan birgalikda o'qituvchilar malakasini oshirish, qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash va raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha dasturlarni amalga oshirmoqda. "Ipak yo'li dasturi" Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasida madaniy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan xalqaro loyiha doirasida O'zbekiston faol ishtirok etmoqda [11].

O'zbekistonning BMT tizimidagi asosiy agentliklar – "UNDP", "UNICEF" va "UNESCO" bilan hamkorligi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda. Ushbu hamkorlik: iqtisodiy barqarorlik va innovatsiyalarni rivojlantirish (UNDP), bolalar va yoshlar huquqlarini himoya qilish, ta'lim va sog'liqni saqlashni yaxshilash (UNICEF), ta'lim, fan va madaniy merosni asrash (UNESCO) kabi sohalarni qamrab oladi [12].

Kelgusida O'zbekiston BMTning boshqa agentliklari bilan ham yangi loyihalarni amalga oshirish, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida faoliyatini kengaytirib boradi. Bu esa mamlakatning global hamjamiyatdagi nufuzini yanada, mustahkamlashga xizmat qiladi. O'zbekiston - BMT munosabatlarining huquqiy asoslari. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) 1945-yil 24-oktabrda tashkil etilgan bo'lib, hozirgi kunda dunyodagi deyarli barcha davlatlarni birlashtirgan eng yirik xalqaro tashkilot hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, davlatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlarni rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish va barqaror taraqqiyotni ta'minlashdir. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o'z tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida xalqaro tashkilotlar, xususan BMT bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Mamlakatimizning BMT bilan o'zaro aloqalari xalqaro huquq me'yorlari, BMT Nizomi (Ustavi) va ikki tomonlama hamda ko'p tomonlama bitimlarga asoslanadi. Ushbu huquqiy asoslar O'zbekistonning xalqaro maydondagi mustaqil subyekt sifatida tan olinishi va faoliyat yuritishida muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgustda o'z mustaqilligini e'lon qildi. Shu bilan birga, tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish va xalqaro huquq subyekti sifatida tan olinishga intildi. 1992-yil 2-martda O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining to'laqonli a'zosi sifatida qabul qilindi [13]. BMT Bosh Assambleyasining 46-sessiyasida bu masala ko'rib chiqilib, "O'zbekistonning suveren davlati sifatidagi maqomi xalqaro huquqiy jihatdan mustahkamlandi". Shu kundan boshlab O'zbekiston

BMTning barcha asosiy organlari Bosh Assambleya, Xavfsizlik Kengashi, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash (ECOSOC) hamda maxsus agentliklarida ishtirok etish huquqiga ega bo'ldi. Bu voqea mamlakatning xalqaro huquq subyekti sifatida tan olinishi, suvereniteti va mustaqil tashqi siyosat yuritish huquqini mustahkamladi. Shu bilan O'zbekiston BMT Nizomida belgilangan barcha majburiyatlarni o'z zimmasiga oldi.

O'zbekiston va BMT o'rtasidagi hamkorlik turli xalqaro hujjatlar, bitimlar va konvensiyalarga asoslanadi. Ularning eng muhimlari quyidagilardir:

BMT Nizomi 1945-yilda qabul qilingan bo'lib, tashkilot faoliyatining asosiy huquqiy manbasi hisoblanadi. O'zbekiston Nizomning barcha prinsiplari va maqsadlariga rioya etadi, xususan:

Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash;

Davlatlarning suveren tengligi va ichki ishlariga aralashmaslik;

Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish;

Inson huquqlariga hurmat va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.

Mazkur prinsiplar O'zbekiston tashqi siyosatining konstitutsion tamoyillariga ham uyg'un keladi. O'zbekiston BMT doirasida qabul qilingan ko'plab xalqaro konvensiyalar va shartnomalarga qo'shilgan. Ular orasida eng muhimlari: "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil)"; "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya (1989-yil)" - 1994-yildan O'zbekiston a'zosi; "Ayollar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya (CEDAW)"; "Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Parij kelishuvi (2015-yil)"; "Korrupsiyaga qarshi BMT konvensiyasi (2003-yil)"; "Terrorizmga qarshi xalqaro konvensiyalar" va boshqalar. Bu hujjatlar O'zbekiston qonunchiligi va milliy siyosatining muhim qismiga aylangan. O'zbekiston va BMT o'rtasida hamkorlikni tartibga soluvchi bir qator "ikki tomonlama huquqiy hujjatlar" mavjud: "O'zbekiston hukumati va BMT o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi memorandum" (1993-yil); "BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP), UNICEF, UNFPA, ESCO, WHO, FAO" va boshqa agentliklar bilan imzolangan bitimlar; "2021-2025-yillarga mo'ljallangan BMT bilan hamkorlik bo'yicha "Barqaror rivojlanish doiraviy dasturi" (UNSDCF)". Ushbu hujjatlar O'zbekiston hududida BMT agentliklarining huquqiy maqomi, vakolatlari, imtiyozlari va ularning faoliyatini moliyalashtirish tartibini belgilaydi [14].

O'zbekiston nafaqat BMT a'zosi sifatida, balki xalqaro huquqni rivojlantirishda faol ishtirok etuvchi davlat sifatida ham tanilgan. Mamlakatimiz bir qator muhim tashabbuslar bilan chiqdi:

"Markaziy Osiyoni yadro qurolidan holi hudud deb e'lon qilish" tashabbusi (2006-yilda qabul qilingan Toshkent shartnomasi); "Orolbo'yi ekologik fojiasiga e'tibor qaratish" - BMT

Bosh Assambleyasi tomonidan Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi deb e'tirof etish rezolyutsiyasi (2018-yil); "Markaziy Osiyo: o'zaro bog'liqlik va barqaror rivojlanish" mavzusidagi rezolyutsiyalar; "Tinchlik, bag'rikenglik va diniy erkinlikni targ'ib etish" bo'yicha xalqaro tashabbuslar. Mazkur tashabbuslar BMT tomonidan qo'llab-quvvatlanib, xalqaro huquq amaliyotiga kiritilgan. O'zbekiston Respublikasining "Konstitutsiyasi" hamda "Tashqi siyosat konsepsiyasi" BMT Nizomida belgilangan xalqaro huquqiy prinsiplar bilan uyg'un. Masalan:

Konstitutsiyaning 17-moddasida "O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan prinsiplari va normalariga asoslanadi" deb belgilangan.

- "Tashqi siyosat konsepsiyasi"da esa BMT va uning institutlari bilan ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirish mamlakatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qayd etilgan. Shuningdek, O'zbekiston milliy qonunlari BMT konvensiyalarida belgilangan me'yorlarga moslashtirilmoqda, jumladan inson huquqlari, ekologiya, ijtimoiy himoya, jinoyatchilikka qarshi kurash sohalarida. O'zbekiston va BMT o'rtasidagi munosabatlar mustahkam xalqaro-huquqiy asosga ega. BMT Nizomi, xalqaro konvensiyalar, ikki tomonlama bitimlar va milliy qonunchilik ushbu hamkorlikning huquqiy poydevorini tashkil etadi [15].

Xulosa. BMT a'zosi sifatida O'zbekiston xalqaro tinchlikni saqlash, inson huquqlarini himoya qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va barqaror rivojlanishga erishish yo'lida faol ishtirok etmoqda. Shu tariqa mamlakatimiz xalqaro hamjamiyatning to'laqonli majburiyatlarini bajarib, global muammolarni hal etishga munosib hissa qo'shmoqda. Shu tariqa mamlakatimiz xalqaro hamjamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida o'z majburiyatlarini bajarib, global muammolarni hal etishga munosib hissa qo'shmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP). Rasmiy sayt - O'zbekiston uchun barqaror rivojlanish dasturlari. <https://www.uz.undp.org>
2. BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP). Rasmiy sayt - O'zbekiston uchun barqaror rivojlanish dasturlari. <https://www.uz.undp.org>
3. BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkiloti (UNIDO). - O'zbekistonda barqaror sanoat rivoji loyihalari haqida ma'lumot. <https://www.unido.org>
4. BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP). Rasmiy sayt - O'zbekiston uchun barqaror rivojlanish dasturlari. <https://www.uz.undp.org>
5. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO). - WHO O'zbekistonda sog'liqni saqlashni mustahkamlash bo'yicha dasturlari. <https://www.who.int/uzbekistan>

6. BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP). Iqlim o'zgarishi va Orolbo'yi mintaqasidagi loyihalar haqida ma'lumot. <https://www.unep.org>
7. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO). - O'zbekiston bilan hamkorlik dasturlari. <https://www.fao.org/uzbekistan>
8. UNDP O'zbekiston vakolatxonasi. - Barqaror rivojlanish maqsadlari, yashil iqtisodiyot moslashuv o'zgarishiga loyihalari. Va iqlim <https://www.uz.undp.org>
9. UNICEF O'zbekiston. - Bolalar huquqlari, ta'lim va sog'liqni saqlash bo'yicha dasturlar milliy <https://www.unicef.org/uzbekistan> haqida hisobotlar.
10. UNESCO Butunjahon merosi markazi. - Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz shaharlarining madaniy merosi haqida. <https://whc.unesco.org/en/statesparties/uz>
11. UNESCO Toshkent vakolatxonasi. - Ta'lim, fan va madaniyat sohalaridagi hamkorlik, Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan obidalar. <https://www.unesco.org/> Tashkent.
12. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi. - BMT tizimi bilan O'zbekiston hamkorligi haqida rasmiy ma'lumotlar. <https://mfa.uz>
13. BMT Bosh Assambleyasining 46-sessiyasi qarori - 1992-yil 2-mart, O'zbekiston Respublikasining BMTga qabul qilinishi to'g'risida. (UN Official Document System)
14. "BMT va O'zbekiston hamkorligi to'g'risida Doiraviy Dastur (UNSDCF) 2021-2025-yillar uchun" – BMT O'zbekistondagi vakolatxonasi, Toshkent, 2021-yil. ([uz.undp.org](https://www.uz.undp.org))
15. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosat konsepsiyasi. - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan tasdiqlangan, 2012-yil 10-sentabr. (lex.uz sayti)